



Shamsiya ATOYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktaranti,
E-mail: atoyevashamsiya31@gmail.com

CONTENTS OF TAZKIRA "MAJOLIS UN-NAFOIS" AND "HASHT BEHISHT"

Annotation

This article is about the structure and content of Alisher Navoi's "Majolis un-nafois" and "Hasht Behisht" of Sahiy Bey, the founder of Ottoman Turkish tazkirnavis. In the course of the research, we will get acquainted with the internal structure of both works, mainly with the content of the preface and preliminary meetings of the sources.

Key words: Tazkira, tradition of tazkira, poets, assembly, class, paradise, analysis.

"MAJOLIS UN-NAFOIS" VA "HASHT BEHISHT" TAZKIRALARINING MAZMUN-MUNDARIJASI

Annotatsiya

Ushbu maqola Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" va Usmonli turk tazkirnavisligining asoschisi Sahiy Beyning "Hasht behisht" tazkiralari strukturasi va mazmun-mundarijasi xususida. Tadqiqotda davomida har ikkala asarning ichki tuzilishi, asosan, manbalarning muqaddima va dastlabki majlislarining mazmun-mohiyati bilan tanishib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Tazkira, tazkirachilik an'anasi, shoirlar, majlis, tabqa, behisht, tahlil.

СОДЕРЖАНИЕ ТАЗКИРЫ «МАЖОЛИС УН-НАФОИС» И «HASHT BEHISHT»

Аннотация

В данной статье речь идет о структуре и содержании «Маджоли ун-нафоис» Алишера Навои и «Хашт бехишт» Сахий-бека, основателя османско-турецкого тазкирнависа. В ходе исследования мы познакомимся с внутренней структурой обеих работ, главным образом с содержанием предисловия и предварительных собраний источников.

Ключевые слова: Тазкира, традиция тазкира, поэты, собрание, класс, рай, анализ.

Kirish. O'tmishdagi voqe-a-hodisalar, siyosiy vaziyat, adabiy muhit haqida ma'lumot beruvchi eng muhim manba, shubhasiz, o'sha davrda yaratilgan adabiy asarlardir. Ayniqsa, tarixiy shaxslar, ijodkorlar, ularning faoliyati borasidagi ma'lumotlar devonlar, masnaviyalar, shoir biografiyalari orqali yetib keladi. Bular orasida tazkiralarning alohida o'rni mavjud.

Tazkira-shoirlar, ba'zi olimlar va azizlar hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar, ularning ijod namunalaridan iborat tarixiy-adabiy to'plam. Mumtoz adabiyot tarixida shoirlar va shayxlar haqida ma'lumot beruvchi bir qancha tazkiralarning mavjud.

Tazkiranada shoir hayoti haqida ma'lumot berilib, ularning ijodi va shaxsiyatiga baho beriladi, asarlaridan namunalar keltiriladi. Bu jihatdan unda adabiy tanqid bor, deya olamiz. O'z navbatida, ijodkorlarning xronologik tartibda joylashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Tazkira ma'lum davr haqida ma'lumot beruvchi ko'zgu vazifasini ham o'taydi.

Tazkiranada ijodkorlarning tanlanishi, ularning asarlaridan parchalarning berilishi ham muallifning didiga bog'liq. Tazkiralalar tasvirlangan shaxslar yoki buyumlarga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Shoirlar haqidagi tazkiralalar davr shoirlarining vaqt o'tishi bilan unutilishga yo'l qo'ymaslik va ularni eslab qolish uchun yozilgan asarlardir.

Turkiy adabiyotdagi tazkira janrining ilk namunasi Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridir. Navoiyning bu asarini Hirotda Fahri Xiraviy "Latoyifnomha" nomi bilin fors tiliga, Hakimshoh Muhammad Qazvini esa Onado'lida fors tiliga tarjima qilgan.

Navoiy bu asarni Jomiyning "Bahoriston" va Davlatshohning tazkiralarini misol qilib sakkiz bobda yozgan. Har bir boblar "majlis" deb nomlanadi.

E'tiborli jihat shundaki, Navoiy o'zi tilga olgan kishilarning shoirlar qobiliyati bilan birga ularning insoniy va

axloqiy fazilatlarini ham baholaydi. Asarda shoirlarning aksariyati she'rлarini fors tilida yozgan turk shoirlaridir. Bu jihatdan asar fors adabiyoti tarixi uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'z navbatida, professor Mustafо Esan ta'kidlagandek, Alisher Navoiy bu asari orqali ko'plab tazkiralarning yaratilishi uchun o'rnak vazifasini bajardi.

Hirotda shakllangan tazkirachilik an'anasi Usmonli turk adabiyoti tazkirachiligi uchun namuna vazifasini bajardi. Usmonli turk tilidagi tazkiravavislik Sahiy Beyning "Hasht behisht" asari bilan boshlanadi. Sahiy bey ham Jomiyning "Bahoriston, Davlatshoh Samarcandiyning "Tazkiran ushshuarо" va Navoiyning "Majolis un-nafois" asarlaridan ta'sirlanib yozilganini qayd etgan bo'lsa-sa, XVI asargacha rivojlangan adabiy muhitni birlashtirish zaruriyati hamda adabiy ehtiyoj sababli ham yozilgan asardir.

"Hasht behisht" tazkirasи strukturasi, mazmun-mundarijasi haqida to'xtalishdan avval muallifning hayot yo'liga qisqacha nazar tashlab o'tsak.

Shoir va ilk tazkira muallifi Sahiy Bey Edirnada tug'ilgan. Sahiyning haqiqiy ismi, tug'ilgan joyi, oilasi va ta'llimi haqida ma'lumot yetib kelmagan. Faqat Sahiyning Abdulloh o'g'li sifatida qayd etilishini hisobga olsak, otasi musulmon bo'limganligi ma'lum. U haqida ko'p ma'lumot yetib kelmagan. 955/1548-49-yilda 80 yoshida vafot etdi. Ushbu ma'lumot 875/1470-71-yillarda Fotih davrida tug'ilganligini tasdiqlaydi[8]. XV asarning buyuk shoirlaridan Nejatiy Bey bilan munosabati yaxshi bo'lgan. U bilan doimiy birga yurgan. Nejati Bey ,Sulton Boyazidning o'g'li shahzoda Mahmud Manisa gubernatoriligi vaqtida uning ustozи bo'lgan. Shu paytda Sahiy Bey Nejati Beyga qo'shilib, Manisa ketadi va umrini kotiblik bilan o'tkazadi. Shahzoda vafotidan so'ng Istanbulda ishini davom ettirdi. So'ngra Sulaymonning shahzodaligi vaqtida unga kotiblik qildi (1520-yilgacha). Manisa va Edirnada yetti yil uning xizmatida yurdi. Sulaymon

sulton bo'lgach, sipohlik, diniy tashkilotda xizmatchilik kabi turli lavozimlarda faoliyat olib bordi. Sahiy Bey umrining so'nggi o'ttini valiylik maoshi bilan Edirnada yolg'izlikda o'tkazadi. Shu yerda asarini yakunlaydi va Sultan Sulaymonga taqdim etadi. Ammo Onado'lida shoirlar haqidagi dastlabki tazkira bo'lishiga qaramay, Sahiy Bey o'zi kutgan e'tiborni qozona olamadi. Shoир 1548-yilda saksondan oshib Edirnada vafot etdi.

Sahiy Bey sohibi devon bo'lishiga qaramay tazkirasi bilan mashhur bo'ldi. "Hasht behisht" Onado'li shoirlarining ilk biografiyasi sifatida 1538-yilda Edirnada yakunlangan.

"Tazkirayi Sahiy" nomi bilan ham tanilgan "Hasht behisht" muqaddima, har biri "behisht" deb atalgan sakkiz qatlama va epilogdan iborat. Arab adabiyotidagi an'anuning davomi bo'lgan bu tizimda qatlamlar forscha raqamlar bilan nomlanadi. Har bir qatlamning boshida ushbu qatlama uchun tushuntirish va har bir qatlama oxirida tavsif qismi mayjud.

Quyida "Hasht behisht" ning qisqacha mazmun-mundarijasi va strukturasi bilan tanishib chiqamiz. Sahiy Bey asar yozish jarayonida Navoiyning "Majolis un-nafois"idan andaza olgan bo'lsa-da, uning ham o'z uslubi ko'zga tashlanadi. Sahiy Bey Navoiydan farqli o'laroq 1-tabaqani Qonuniy Sultan Sulaymonga vasfiga bag'ishlaydi. Keyingi qismlarda yana orqaga qaytish usuli orqali o'zidan oldingi ijodkorlar haqida to'xtalib o'tadi.

2-tabaqada Sultan Sulaymongacha she'r yozgan devoni bor shahzoda va sultonlar haqida yozadi. 3-tabaqada esa davlat amaldorlarini o'z ichiga olagan vazirlar, askarlar, beklarga bag'ishlanadi. Bular orasida olamdan o'tgan va hali hayot bo'lgan shoир- amaldorlar bor. Shoirlar soni nusxalarga ko'ra farqlanadi. Bu qatlamning 1-shoiri Ahmad posho bo'lsa, so'nggisi Ahmad Beydir.

4-qatlamda fozil shoир va olimlar haqida fikr yuritiladi. Bu tabaqa Xizir Bey bilan boshlanib Mavlono Lamiy bilan yakunlanadi.

5-tabaqada Sahiy tazkirasini yozayotganida vafot etgan ijodkorlar haqidadir. Sahiy, bu shoirlarining hayoti va sarlarini o'z izlanishlari natijasida yozgan. Bu qatlamda 33 ta shoир tilga olingan bo'lib, dastlabkisi Mavlono Shayxiy oxirgisi Kivomiydir.

6-qatlamda eng ko'p shoirlar zikri keltirrilgan bo'lib, bunda yaqindagina vafot etgan shoirlar ham Sahiy o'zi suhabatdosh bo'lgan va do'st tutingan qalam ahli haqida aytib o'tadi. Bu tabaqaning ilk shoiri Nejatiy so'nggi Mavlono Makamidir.

Sahiy o'zi tanigan, o'zi bilan zamondosh bo'lgan shoirlar haqida 7-tabaqada aytib o'tadi. Bularning ba'zilarini endigina ijod maydoniga kelgan bo'lsa, ba'zilarini muallifning o'zi shaxsan tanirdi. Bu qatlamda ikki ayol shoiralarning nomi ham tilga olinadi. Qatlam Mavlono Zoti bilan boshlanib Mihriy xotun bilan yakunlanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, tazkiraga ayol ijodkorlarning ham kiritilganligi Sahiyning yangiliqi hisoblanadi. Biz bu holatni "Majolis un-nafois"da kuztmaymiz.

8-tabaqada nomlari endigina tanila boshlagan va Sahiy iste'dodli deb bilgan yosh shoirlar haqida aytib o'tadi.

Asarning xotima qismida Sahiy o'ziga xitob qilib, Qonuniy Sultan Sulaymonni madh etishi lozimligini aytib o'tadi. Asarning madh qismidan so'ng nasr qismida Onado'li va Istanbulda ko'p shoirlar borligini ta'kidlaydi, ammo bularning hammasini zikr etishga imkon bo'lmaganligini aytib, asarning yakunlanishi 945/1538-yilligini yozib, tazkirani Qonuniy Sultan Sulaymonga bag'ishlab yozgan ikki bayti bilan yakunlaydi.

Yuqorida Sahiy Bey tazkirası strukturasi bilan qisqa tanishib o'tdik. Endi bevosita ikki asar ("Majolis un-nafois" va "Hasht behisht") muqaddiması va tazkiralarnı bag'ishlangan hukmdorlar haqidagi majlislar izohiga o'tamiz.

Har ikkala tazkira ham Ollohga hamd va Muhammad (s.a.v)ga na't bilan boshlangan. Shundan so'ng o'zlarigacha bo'lgan tazkiravilalar ham birma-bir eslab o'tilib, ularning mahoratlari e'tirof qilingan. Jumladan, "Majolis un-nafois"ning muqaddimasida Hazrati mahdumga shunday ta'rif berilgan:

Ulkim bu to'quz falakni aql etsa xayol,
Daryoi ulumig'a topar qatra misol,
To chashmai ta'b'i dahr aro ochti zulol,
Hayvon suyi yanglig' ayladi molomol[7].

Nazm ilmi qoyillari va she'r fani komillarining nomlari, axloqiy sifatlari zamon va davron sahifasidan yo'q bo'lib ketmasligi uchun kitob tuzganlarini ta'kidlaydi. Shuningdek, Hazrat Navoiy: "Mundoq buzurgvor oliy miqdor "Bahoriston" otlig" kitobidakim, sekkiz ravza olibdur v sekiz ravzai jannat alar xijolatidin el ko'zidin ixtifo pardasig'a qochibdur..."[7] deya Jomiyning tazkirası sakkiz jannatdan tarkib topganligi va unga "Bahoriston" nomi qo'yilganini aytib o'tadi. So'ng Amir Davlatshohning ham Sultoni Sohibqironga "Tazkirat ush -shuar" otlig" kitob bitganligi eslandi. Oxirda Navoiy o'z asarining tarkibiga to'xtaladi. "Chun bu maqsudg'a yetildi, oni sekiz qism etildi va har qismi nafis bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmu'ig'a "Majolis un-nafois" ot qo'yuldi"[8]. Nihoyat quyidagi misralar bilan asar muqaddimasiga yakun yasaydi.

Bu tuhfaki xushmen ibtidosi birla,
Ham nazm latoyifi adosi birla,
Ummid bukim, umr vafosi birla,
Xatm aylagamen shoh duosi birla[8].

Onado'lidagi tazkiravilalikni yo'lboshchisi Sahiy Bey "Hasht behisht"ning muqaddimasida hamd va na't qismidan so'ng Navoiy singari o'ziga bo'lgan ijodkorlarni hurmat bilan tilga oladi. Jumladan, Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy va Alisher Navoiylarni birma-bir xotirlashdi. Navoiyning Sultan Husayn Boyqaroning vaziri va suhabatdoshilagini ta'kidlab, asariga quyidagicha ta'rif beradi: "...bu cümlenin sekiz meclis idüp Mecalisü'n-nefa's diyü ad vermiş. Insaf bu ki her meclisi bir cennet ve her beyti nigarhane-i Çini gibi purnaks-suret kilup bir vech ile arayış ve bir şere ile işler itmiş..."[7].

Sahiy Bey ham ularga ergashib, bir asar tartib qimoqchiligin aytadi. Bu asarni yozishda Ollohdan najot so'raydi.

Ya Rab bu benüm şı'rümü payan yetişdür
Lutf eyle sözüm gayet-i imkana yetişdür
Haltümden ana yanmaga iy Asaf-i devran
Ben muri meded şah Süleymana yetişdür

Ve bu risalenün esasi sekiz tabaka üzre tertib ve semaniye misalinde sekiz tetimme ile tehzib olup Heş Bihiş diyü tesmiye olundi[7]. Sahiy Bey hm o'zidan oldingi salaflari singari tazkirasini sakkiz qismidan iboratligini aytib o'tadi.

Alisher Navoiy Sahiy Beydan farqli o'laroq "Majolis un-nafois"ning sakkizinchı majlisini Sultan Husayn Boyqaroga bag'ishlaydi. Shoир Sultanning saxovati, shijoati, adolati, muruvvatini shunchaki ta'riflab o'tmaydi.

Kim, mulki davomi to qiyomat bo'lsun,
Zotig'a bu mulk uzra iqomat bo'lsun,
Adl ichra tariyqi istiqomat bo'lsun,

Olam ahli uchun salomat bo'lsun[7]. Balki uning she'rinyda ham balog'atga yetganini ijodidan namunalar keltirish orqali kitobxonni sergaklantiradi. "Ul Hazratning xub ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'ptur va devon ham murattab bo'lubtur. Devon ibtidosidin bunyod qılıldi va har g'azaldın bir matla' yozildi..."[7]. Sakkizinchı majlis davomida Husayn Boyqaroning devonidan parchalar keltirilib izohlاب ketiladi. Izohlash jarayonida Sultanning boshqa ijodkorlardan farqli jihat yoki ijodining o'ziga xos holatlarini ham ta'kidlanadi. "Bu qofiya va radif hazrat Sultan

Sohibqironning ixtiro'idurkim, hech nazm aytilmaydur va hech devonda bitilmaydur:

Ohkim, hijron o'tidin kuydi jonio qo'sha nav',
O'rtadi ofoqni o'tluq fig'onim o'zga nav'''[7].

Ba'zi o'rnlarda she'r bahsida hech qaysi shoirlarning ul hazratcha aytal olamaganini eslab, matla' keltiradi:

Hajiring o'ti jismi zorim qildi kul, ey yor, bil,
Gar bino qilsang mazorim tarhin ul kul birla qil[7].

Ayrim o'rnlarda hatto Navoiymi ham ortda goldirganligini kamtarona tilga oladi. Shuningdek, Husayn Boyqaroning qofiya va radifda ixtiroları ham ayrim o'rnlarda aytib ketiladi. E'tiborli jihat shundaki, Husayn Boyqaroning o'z davrinining malik ul-kalomi Mavlo Lutfiy bilan ham mushoiraga kirishgani va ul hazratni ham lol goldirgani misollar yordamida isbotlangan. Bundan tashqari Mavloni Lutfiyni lol qoldirgan, Navoiymi ham xushhol qilgan Mir Xusravning o'sha mashhur hinducha ash'ori (g'oyat nozuklugidin yog'in rishtasini madadi bila tutub qo'pmish bo'lg'ay)ga o'rinni e'tiroz boldirishi Sulton Boyqaroning ham nozik didli ijodkorligidan dalolat beradi, albatte.

"Dedilarkim, ul e'tiroz budurkim, ul yog'in qatrasini yuqoridin quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtasiga dag'I hamul holdur. Rishtaikim, mayli quyi bo'lg'ay, aning madadi bila yiqiladurg'on o'zin asramog'i maholdur..."[7]. Shunchaki e'tiroz bildirish bilan kifoyalanmay, O'z variantini ham keltiradi:

Za'fdin kulbamda qo'pmoq, istasam aylar madad,
Ankabute rishta osqon bo'lsa har devorg'a[7].

Sakkizinchı majlisda nafaqat sulton Boyqaroning shoirligi, balki uning Mavlono Qobuliy bilan bog'liq voqeasi misolida husni xulqi, baland idroki va zehni tahsinga sazavorligini ta'kidlaydi. Voqeasi quydagicha:

Mavlono Qobuliy ismli kichik yigit yig'it Qunduz va Hisor tarafidan kelgan edi. Ta'bi turkiy va forsiy nazmiga muloyim edi. Bir matla' aytdi:

Na'l kestim dardi afzun bo'ldiyu kam bo'lmadi,
Dog' qo'ydum so'zi kam bo'lg'ay debon, ham bo'lmadi.

Dedimkim, mundin yaxshiroq qofiya bog'lasang, bo'lur erdi, faqir ul qofiyani bog'ladim:

Sarv moyil bo'ldikim, o'pgay oyog'ing tufrog'in,
Yo'qsa har soat sabo tahrakidin xam bo'lmadi[7].

Xullas, Qobuliy bu baytni Husayn Boyqaro huzurida o'qiydi, Sulton ikkinchi bay tuning nazmidan emasligini tezgina anglab oladi, ammo majlis oldida yosh yigitni izza qilmaslik uchun indamadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Sahiy Bey tazkirasingina tabaqalarini forscha nomlaydi.

Ijodkor asarning dastlabki tabaqasini zamona shohi Qonuniy Sulton Sulaymon madhiga bag'ishlaydi.

Beyt: Adalet tahtinun Nuşin-revani
Mürüvvet kaninun şah-i cihani[8]

Sulton Sulaymonning adolatlari, muruvvatli shoh ekanligini ta'kidlab, uzoq yillar davomida jahon mulkini nizom va intizom bilan boshqorganini e'tirof etadi.

Birinchi tabaqanining "tetimme", ya'ni tavsif qismi shundayki, bu asarda jam bo'lib nomi tilga olingan Sulton Sulaymon va boshqa adolatlari shohlar, aziz shoirlarni har biri tug'ilganliklariga ko'ra tartib berilib yozilaganligi aytib o'tilgan. Shuningdek, bu tazkira Qonuniy Sulton Sulaymonning topshirig'i bilan yozilganligi ham eslatib o'tilgan. Sahiy Bey birinchi tabaqanining tavsif qismiga quydagi qit'a bilan yakun yasaydi.

Evvel yazilsa n'ola bu meclisde padishah

Zat-i şerifi cümleden öndür ne iştibah
Şeh-zadelerle kendü vücut -i şerifini

Ta haşre dek bu cümlesini sakla ya İlah[8].

Demak, bundan ko'rinishdiki Alisher Navoiy "Majolis un-nafoisi" tazkirasi Usmonli turk tazkiralarining shakllanishi uchun turkiy vazifasini bajargan. Har ikki tazkiralarining mazmun-mundarijasi va strukturasidan ma'lum bo'ldiki, "Majoli un -nafoisi" va "Hasht behisht" tazkiralarining mushtarak jihatlari bilan birga o'ziga xos jihatlari ham mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Oybek. Navoiyning "Majolis un-nafoisi" asari haqida.-Toshkent, 1979.-215 b
2. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati,-Toshkent, 1989. -211 b
3. Hayitmetov A. "Majolis un-nafoisi" haqida ba'zi mulohazalar.//O'zbek tili va adabiyoti masalalari.-Toshkent,1958. N 1.
4. G'aniyeva S. "Majolis un-nafoisi" asariga tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn.-Toshkent:Fan, 1966.-176 b.
5. G'aniyeva S. Alisher Navoiy "Majolis un-nafoisi": ilmiy-tanqidiy matn.-Toshkent, 1961.-242 b.
6. Isen M. Tezkireden Biyografi ye. – Istanbul:Kapi Yayınlari, 2010. S.51-52.
7. Hast-Behist. Haz. Gunay Kut. — Harvard,1978. S. 77.
8. Navoiy A. To'la asarlar to'plami. 9-jild,-Toshkent, 2013.-768 b
9. Sahiy Bey . Hasht behisht. –Anqara, 2017.-269 b